

Malakali iqtisodchi rahbarlarni tayyorlash jarayonida ingliz tili o'qitish metodlaridan samarali foydalanish yo'llari

Sultonmurotova Shaxrizoda Muzaffar qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak rahbarlarni tayyorlash jarayonida ingliz tilini o'qitishda qo'llanilayotgan metodlar, ulardan samarali foydalanish yo'llari hamda jarayon bilan bog'liq muammo va kamchiliklar haqida so'z boradi. Ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'rganish (ESP) sohasida eng ko'p ishlatilayotgan metodlar va malakali iqtisodchi rahbarlarni yetishtirish uchun ularni to'g'ri qo'llash bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: ESP (English for Specific Purpose), iqtisodchi rahbar, innovatsion texnologiyalar, autentik materiallar, til ko'nikmalari, interaktiv metodlar, sun'iy intellekt

Пути эффективного использования методов обучения английскому языку в процессе подготовки квалифицированных экономических лидеров

Султанмуротова Шахризада Музаффар кызы
Докторант Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация

В данной статье рассматриваются методы, используемые при обучении английскому языку будущих руководителей в высших учебных заведениях, эффективные способы их применения, а также проблемы и недостатки, связанные с этим процессом. Представлен обзор наиболее часто используемых методов в области английского языка для специальных целей (ESP), а также даны рекомендации по их правильному применению для подготовки квалифицированных экономистов-руководителей.

Ключевые слова: ESP (английский для специальных целей), экономист-руководитель, инновационные технологии, аутентичные материалы, языковые навыки, интерактивные методы, искусственный интеллект.

Ways to effectively use English language teaching methods in the process of training qualified economic leaders

Sultonmurotova Shaxrizoda Muzaffar qizi
Doctoral student of Tashkent State University of Economics

Annotation

This article discusses the methods currently used in teaching English to future leaders in higher education institutions, the effective ways of utilizing these

methods, as well as the challenges and shortcomings associated with the process. It provides insights into the most widely used methods in the field of English for Specific Purposes (ESP) and offers recommendations on how to apply them appropriately for training qualified economic managers.

Keywords: ESP (English for Specific Purposes), economic manager, innovative technologies, authentic materials, language skills, interactive methods, artificial intelligence.

Kirish

Bugungi kunda iqtisodiyotning globalizatsiya jarayonlari va xalqaro hamkorlikning rivojlanishi malakali iqtisodchi rahbarlarni tayyorlash vazifasini zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biriga aylantirdi. Chunki rahbar bu ko'pchilikning nomidan ish ko'ruvchi, jamoa uchun qarorlar qabul qiluvchi, tizimning kelajagi qanday davom etishini bevosita hal qiluvchi shaxsdir. Har qanday tashkilotning uzoq vaqt yashab qolishi, raqobatlariga bardosh bera olishi va tizimda ko'p yillar davomida samarali faoliyat yuritish uchun boshqaruv qarorlarini qabul qilish rahbar tomonidan to'g'ri va mukammal bo'lishi lozim. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ham shu masalaga alohida urg'u berib ta'kidlab o'tganlar: "Asosiy vazifa – bu yuqori kasb mahorati va zamonaviy tafakkurga ega, puxta o'ylangan, har tomonlama to'g'ri qarorlar qabul qila oladigan, belgilangan maqsadlarga erishadigan rahbarlar va mansabdor shaxslarning yangi tarkibini shakllantirishdan iborat. Har bir fuqaro qabul qilayotgan qarorlarimiz real foyda berayotganini bilishi kerak" Shunday ekan har tarafmuna yetuk, tashkilotni moliyaviy jihatdan ham, ma'naviy jihatdan ham boy qila oladigan, jamoani ilhomlantira oladigan, yangiliklarga ochiq, bilimli, kuchli liderlik salohiyatiga ega bo'lgan boshqaruvchilarni tayyorlash bugungi kundagi ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri qilib belgilab olingan.

Boshqaruv va strategik fikrlash ko'nikmalari hamda tahliliy fikrlash qobiliyatining mavjudligi, siyosiy va iqtisodiy qarorlarning o'zaro bog'liqligi, xalqaro hamkorlik masalalarida tajriba orttirganligi va yana qator sabablar bilan bugungi kunda boshqaruv sohasida faoliyat yuritayotgan rahbarlarning ko'pchiligini iqtisodchilar tashkil etadi. Malakali iqtisodchi rahbar esa xorijiy tashkilotlar bilan aloqa o'rnatishi, turli ilmiy tadqiqotlar olib borishi, texnologik rivojlanishning tezlashishiga hissa qo'shishi, ilm-fan sohasida dunyoda bo'layotgan eng so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lib, uni o'z muassasasida targ'ib etishi, xalqaro onlayn platformalardan foydalana olishi, anjumanlarda qatnashib, o'z tashkilotini xalqaro maydonga olib chiqishi kabi ko'plab mas'uliyatli vazifalarni amalga oshirishi lozim. Shu o'rinda xorijiy tillarni, ayniqsa bugungi kunning global tili- ingliz tilini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19-maydagi PQ-5117-sonli

“O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorida[1] hamda davlat organlarini yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar bilan to‘ldirish maqsadida davlat organlarida ta’lim tashkilotlari o‘qituvchilarini shartnoma asosida jalb qilib, haftada kamida bir marotaba xodimlarni xorijiy tilga o‘qitish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi, xorijiy tillardan milliy va xalqaro sertifikatga ega davlat boshqaruv idoralarining barcha bo‘g‘inlari xodimlariga lavozim maoshiga nisbatan 20 foizgacha qo‘shimcha ustama tashkilotlarning budjetdan tashqari hamda ish haqi fondi doirasida budjet mablag‘lari hisobidan to‘lash yo‘lga qo‘yildi, davlat organlariga ishga qabul qilish va yuqori lavozimga tayinlash uchun xorijiy tilni bilish talabgorga qo‘yiladigan majburiy malakaviy ko‘nikma sifatida belgilandi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Xorijiy til o‘qituvchilari tilni oson o‘rgatish maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalangan holda turli xil innovatsion metodlarni qo‘llagab darslarini qiziqarli va foydali qilib o‘tishga harakat qilmoqdalar. Turli sohalarda ingliz tilini o‘rganish va o‘rgatish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa ESP (English for Specific Purpose) til o‘qitishning maxsus yo‘nalishi sifatida anchayin ommalashgan va malakali iqtisodchi rahbarlarni tayyorlash jarayonida ham ingliz tili o‘qituvchilari tomonidan qo‘llanib kelinmoqda. Britaniyalik lingvist va ESP sohasida yetakchi mutaxassis Tony Dudley Evans bu metodikaning iqtisodiyot va shu kabi boshqa sohalarda ishlatilishining yuqori samara berishini alohida ta’kidlagan.[4] Xatchinson va Uoters ESPni quyidagicha ta’riflaydilar: “Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili - bu til o‘rganishga yondashuv bo‘lib, unda kurs mazmuni va foydalaniladigan usullar bo‘yicha barcha qarorlar talabalarni til o‘rganish jarayonini boshlashga undagan sabablarga asoslanadi”.[5] Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ham iqtisodiyot yo‘nalishidagi mutaxassislik fanlarining ingliz tilida o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan va bu uchun fan o‘qituvchilari alohida rag‘batlantiriladi, o‘qitish tizimining qanchalik samara berayotgani doimiy nazorat qilib boriladi.

Malakali iqtisodchi rahbarlarni tayyorlashda ingliz tili o‘qituvchisi, avvalo iqtisodiyotga oid terminlarni mukammal bilishi va uni dars jarayonida to‘g‘ri metodlarni tanlagan holda talabalarga ham o‘rgata olishi kerak. Bunda terminologiya sohasida yaratilgan ko‘plab ilmiy adabiyotlar, ensiklopediya va lug‘atlarni o‘rganganlik o‘qituvchiga asqotadi. Talabalarga iqtisodiy terminlarni oson yetkazib berish CLIL (Content and Language Integrated Learning) – kontent asosida til o‘rganish usuli yordamida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda iqtisodiy biror mavzu o‘rtaga tashlanadi va shu mavzuga oid terminlar, fe‘llar va iboralar qatnashtirilib gaplar tuziladi. Ayni vaziyatda real iqtisodiy bilim va til birgalikda talabalarga yetkazib beriladi va ingliz tilining yana bir bor ular xotirasida

yaxshi saqlanishiga erishiladi. Bu usul asosan lug‘at boyligini oshirishga qaratilgan bo‘lib akademik va professional sohalarga tayyorlovchi metod hisoblanadi. Lingvist Krashen "Principles and Practice in Second Language Acquisition" asarida bu metodning afzalligini shunday ta’kidlaydi: “O‘quvchi tushunadigan va qiziqadigan kontentga duch kelsagina, u tilni samarali o‘zlashtira oladi.”[6]

Yana bir eng yaxshi metod Case study- holat tahlili metodi bo‘lib, ko‘plab ingliz tili o‘qituvchilari tomonidan samarali qo‘llanib kelinmoqda. Chunki bu metod orqali tilning gapirish, yozish, o‘qish va tinglab tushunish mahoratini baravar rivojlantirish mumkin. Case study ham kontestga asoslangan metod bo‘lib, bunda talaba real vaziyatni tahlil qilishi, unga yechim berishi, turli dialoglar tuzishi, xat yoki e-mail yozishi, videolar, intervyular tayyorlashi orqali ingliz tilini o‘rgatish nazarda tutilgan. Pedagog, professor Gulnora Janova bu metodning ta’lim jarayonidagi ahamiyati haqida ilmiy izlanishlar olib borgan va ularda Case study metodi kritik fikrlashni rivojlantirishi, kommunikatsiya va interpersonal ko‘nikmalarni yaxshilashi, nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlashi, axborotga bo‘lgan savodxonlikni oshirishi haqida batafsil bayon etgan.

Task-Based Learning (TBL) – topshiriqqa asoslangan o‘rganish ingliz tilini o‘qitish metodikasi bo‘lib, o‘quvchilarni muayyan topshiriqlarni bajarayotganda tilni tabiiy ravishda o‘rganishga yo‘naltiradi. Bu metod kommunikativ yondashuv asosida qurilgan va asosiy maqsad - tilni maqsadli faoliyat orqali o‘rgatishdir. Bu metoddan foydalanish uchun ko‘pincha guruhlariga bo‘lib topshiriq beriladi va bu orqali talabalarda hamkorlikda ishlash, ko‘proq ingliz tilida muloqot qilish, vazifani muhokama qilish orqali birgalikda bajarish, til muhitini his qildirish nazarda tutiladi. O‘qituvchilar tomonidan autentik materillardan foydalanib real hayotdan olingan topshiriqlar berish orqali hamma talabalarni darsda birdek qatnashishini ta’minlash ko‘zda tutiladi. TBL ning asosiy nazariyotchilaridan biri Rod Ellis bu metod ustida ko‘plab ilmiy ishlar olib borgan, ilmiy adabiyotlar yaratgan bo‘lib, o‘zining "Task-Based Language Teaching" kitobida: “Topshiriq - bu tilni ishlatish faoliyatidir, uning asosiy maqsadi ma’no ifodalashdir.”- deb aytib o‘tgan.[7]

Role playing– rolly oyinlar metodi interaktiv o‘qitish usullaridan biri bo‘lib, unda o‘quvchilar turli ijtimoiy vaziyatlarda ma’lum rollarni bajarish orqali til ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu metod asosan gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishda ingliz tili o‘qituvchilari tomonidan keng qo‘llanilib kelinmoqda. Mashhur tilshunos olim Jeremy Harmer o‘zining “How to teach English: An introduction to the practice of English language teaching”.kitobida rolly o‘yinlar haqida lohida to‘xtalib, uning til o‘rganuvchilar uchun qanchalik samarali usul ekanligini ta’kidlagan.[3] Bunda talabalar biror mavzuga aloqador dialog, intervyu yoki podkast tayyorlashlari va qolganlarga namoyish etishlari kerak bo‘ladi. Metodning ustunligi shundaki talabalarga oldindan mavzu berilmaydi, shu yerning o‘zida dars mavzusiga, vaziyatga mos muammo ko‘tarilib, talabalar tezkor ijodiy fikrlashga o‘rgatiladi. Shu darsda o‘rganilgan terminlar, fe‘llar va iboralarni mustahkamlash va butun guruhni faolligini oshirish maqsadida ham bu metoddan foydalaniladi.

Logical sequence method - mantiqiy ketma-ketlik metodiga ko'ra, o'quvchilar avval dialoglarni tinglashladi, keyin matnni o'qib, so'ngra ingliz tilidagi qisqa videoni tomosha qiladilar va amalda qo'llash kabi ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Bu metod boshqalariga qaraganda keng qamrovli bo'lib to'rtta til mahoratini ham baravar rivojlantira oladigan usul hisoblanadi. Zamonaviy axborot texnologiyalarning so'nggi imkoniyatlaridan unumli foydalana oladigan ingliz tili o'qituvchilari autentik materillarni turli xil til o'rganishga bag'ishlangan saytlar, platformalardan yuklab olib dars mavzusiga mosini namoyish qilishadi va mavzuni yanada mustahkamlagan holda til o'rganuvchilar uchun mavjud bo'lgan onlayn imkoniyatlar bilan ham tanishtirib borishadi. Mantiqiy ketma-ketlikni yakunlashda Quizlet, Padlet, Google Forms, Kahoot kabi platformalardan foydalanib talabalarning mavzuni o'zlashtirganlik darajasini tekshirish, butun guruhni baravar dars jarayoniga jalb qilish maqsadga muvofiq.

Nofilologik yo'nalishdagi til o'rganuvchilarning barchasi ham ko'p ishlatavermaydigan, ammo iqtisodiyot sohasida juda muhim bo'lgan metod bu- Graph and Chart Description Method, ya'ni jadval, diagramma, turli sxemalarni tasvirlash metodi bo'lib, iqtisodiyot yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun ingliz tilini kasbiy kontekstda o'rgatishda juda muhim metod hisoblanadi. Ushbu usul orqali talabalar statistik va vizual ma'lumotlarni ingliz tilida tahlil qilish, solishtirish va sharhlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu esa akademik yozuv va taqdimotlarda nutq so'zlash qobiliyatini shakllantirib, ularning kelgusi faoliyati uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar

Yuqorida ko'rsatilgan barcha metodlarni tahlil qilib chiqadigan bo'lsak, bularning barchasi ESP sohasida ingliz tilida gapirish, o'qish, yozish va tinglab tushunish ko'nikmalarini iqtisodiy bilimlar vositasida rivojlantirishga asoslanganligi bois malakali iqtisodchi rahbarlarni yetishtirishda til o'qituvchilariga asqotib kelmoqda. Rahbarga kerak boladigan 'bilimlarni o'rgatish bilan birgalikda rahbar etiketiga xos bo'lgan madaniyatni ham shakllantirishda ingliz tilini bilishning ahamiyati katta ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, har bir metodni o'z o'rnida samarali ishлата oladigan o'qituvchi yetuk rahbarni tayyorlay olishi shubhasiz. Rahbar uchun ingliz tili xalqaro ochiqlik, innovatsion fikrlash, yuqori reyting, global ta'lim tarmog'ida faol ishtirokni ta'minlashi bilan bir qatorda o'z majburiyatlarini bajarishda, ko'plab muvaffaqiyatlarga erishishda asos bo'lib xizmat qilishi quyida misollar yordamida ko'rsatiladi. Rahbarning etiketini to'g'ri shakllantirishda va akademik faoliyatidagi ma'lum vaziyatlar uchun mos bo'lgan ingliz tili o'qitish metodlarini tahlil qilib chiqamiz:

Xalqaro hamkorlik va grantlar: Rahbar butun muassasa nomidan ish ko'rar ekan bu dargohdagi faoliyat yuritayotgan, ta'lim olayotgan har bir shaxsning manfaatlarini o'ylagan holda ilmiy salohiyatning oshishi, o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish, xalqaro tarmoqlarga kirish, universitet reytingini oshirish maqsadida chet el universitetlari bilan qo'shma dasturlar, ilmiy loyihalar, akademik

almashinuvlar uchun muzokaralar olib borishi zarur. Masalan Erasmus+, DAAD, Tempus, Fullbright kabi dasturlarga ariza topshirish yoki ularga rahbarlik qilish uchun boshqaruvchi albatta ingliz tilida muloqot qila olishi kerak.

Ilmiy nashr va konferensiyalar, ilmiy va akademik nufuz: Scopus, Web of Science kabi bazalarga kiritilgan ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish, xalqaro konferensiya va anjumanlarda chiqish qilib, universitet sha'nini himoya qilish, chet ellik professor o'qituvchilarni jalb qilish, ingliz tilida olib boriladigan ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, o'qituvchilar va talabalar uchun akademik almashinuv dasturlarini yo'lga qo'yish, universitetning xalqaro reyting ko'rsatkichlarini oshirish kabi barcha ishlar rahbarning zimmasida bo'lib, ingliz tilini bilmagan boshqaruvchi buni uddalay olmaydi.

Raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va boshqaruvni rejalashtirish: Ta'lim, fan va texnologiyalar sohasidagi eng yangi yondashuvlar, metodikalar, standartlar avvalo ingliz tilida e'lon qilinadi. Rahbar ingliz tilini bilsa, u xalqaro ta'lim jarayonlarini bevosita kuzatib boradi va dolzarb islohotlarni tezda joriy eta oladi, darslar, kurslar va malaka oshirish dasturlarini ingliz tilida yo'lga qo'yish tashabbusiga ega bo'ladi, o'zgaruvchan global mehnat bozoriga moslashgan kadrlar yetishtirishni ta'minlaydi.

Har tomonlama yetuk, malakali rahbarni tayyorlash uchun ingliz tilini o'rgatishda yuqorida ko'rsatilgan boshqaruvchining majburiyatlarini bajarishda zarur bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirish uchun TBL, CLIL, Case study, Logical sequence, Role playing va shu kabi ko'plab metodlar asosida ingliz tilini o'rgatish maqsadga muvofiq. Rahbar xalqaro maydonda chiqish qilib nutq so'zlay olishi, taqdimot qilishini ta'minlash uchun role playing, shadowing usuli, audio+speaking kombinatsiyasi hamda bugungi kunda rivojlangan Artificial Intelligence (AI), ya'ni sun'iy intellekt bilan mashq qilish boshqaruvchida erkin muloqot qilish ko'nikmasini shakllantiradi. Xalqaro talablarga javob beradigan ilmiy nashrlarda maqolalar chop etish va tahlil qilishda, chet el universitetlari bilan hamkorlik bo'yicha yozishmalar olib borishda, grantlarga arizalar jo'natishda, muassasaning reytingini tahlil qilishda, moliyaviy kirim-chiqim holatini jadvallar va grafik chizma, diagrammalar orqali tahlil qilishda rahbarga Graph and Chart Description, Case study, CLIL metodi va autentik materiallar, ya'ni gazeta, jurnallar, kundalik yangiliklarni ingliz tilida o'qish metodlari orqali olib borilgan darslar eng samaralisi hisoblanadi. Ko'rsatilgan metodlardan unumli foydalanish uchun ularning foydali tomonlari bilan birga kamchiliklarini ham ko'rsatib o'tish lozim. O'zbek pedagoglaridan Gulnora Toshmatova CLIL metodi bo'yicha olib borgan ilmiy izlanishlarida bu metodning ta'lim tizimida qo'llanilishiga doir muammolarni tahlil qiladi. [8] Uning fikricha, CLIL metodini muvaffaqiyatli joriy etish uchun quyidagi omillar muhim:

- Yangi o'quv dasturlarini ishlab chiqish – CLIL yondashuvi an'anaviy darslardan farqli metodologiyani talab qiladi.
- Innovatsion pedagogik yondashuvlar – faqat til emas, mazmun asosida o'qitishga yo'naltirilgan metodikalar zarur.
- Malakali o'qituvchilar tayyorlash – ikki yoqlama kompetensiya (til va mazmun) talab qilinadi.
- Zarur resurslar bilan ta'minlash – dars materiallari, vizual vositalar, metodik qo'llanmalar CLIL uchun alohida ishlab chiqilishi lozim.

Xulosa

Yuqorida ko'rsatilgan malakali rahbarning sifatlari, majburiyatlari va ingliz tilini bilishi orqali erisha oladigan natijalarini inobatga olgan holda ingliz tilini o'rganish bo'lajak rahbarlar uchun strategik zarurat sifatida qaralishi lozim. Bunga asos sifatida mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarni keltiradigan bo'lsak, 2024-yil 6-mayda xorijiy tillarni o'qitishga bag'ishlangan videoselektorda Prezidentimiz oliy o'quv yurtlarida mutaxassislik fanlarini xorijiy tillarda o'qitishni bosqichma-bosqich joriy etish haqida topshiriq berib,; "Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida ikkita chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim",- deb alohida ta'kidlaganlar.[2]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. . Shavkat Mirziyoyev. "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori <https://lex.uz/>
2. Shavkat Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xorijiy tillarni o'qitish tizimini takomillashtirishga bag'ishlangan videoselektordagi nutqi. 2024-yil, 6-may. <https://qalampir.uz>
3. Harmer, J. How to teach English: An introduction to the practice of English language teaching. Edinburgh Gate, Harlow, England. 1998
4. Tony Dudley Evans. The Cambridge Guide to Teaching English to Speakers of Other Languages. Cambridge University Press, United Kingdom. 2001
5. Tom Hutchinson, Alan Waters. English for Specific Purpose. Cambridge University Press, United Kingdom. 1987
6. Stephen de Krashen. Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamont Press, Oxford. 1982
7. Rod Ellis, Peter Skehan, Shaofeng Li, Natsuko Shintani, Craig Lambert. Task-Based Language Teaching. Cambridge University Press, United Kingdom. 2019
8. Gulnora Toshmatova. Challenges of implementing clil (content and language integrated learning). Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 2022, 3(3), 567–574

9. Jamol Jalolov. Chet tili o'qitish metodikasi. "O'qituvchi" nashriyoti, Toshkent. 2012
10. A.E.Kenjaboyev, B.X.Karimova. Pedagogik menejment asoslari. "Irfon Print" nashriyoti, Termiz, 2023
11. Musaxanova G. M. "Keys-stadi" texnologiyasi talabalarning mustaqil ta'lim jarayonida tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantiruvchi innovatsion metod sifatida // Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.